



UDK: 821.111:82-84(045)

Abdixamidullo AZIMOV,
Mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti,
E-mail: azimovhamid082@gmail.com

Ter DU dotsenti J. Kenjabayev taqrizi ostida

MAQOLLARNING ROMAN MATNIDAGI LINGVOMADANIY TAHLILI (SIDNI SHELDONNING "IF TOMORROW COMES" ROMANI MISOLIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada Sidni Sheldonning "Orziqib kutaman ertani" romani misolida maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularning ingliz, rus hamda o'zbek tillaridagi tarjima variantlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollarning badiiy matndagi funksional-semantik vazifalari, qahramonlarning ruhiy holatini ochib berishdagi o'rni hamda milliy-madaniy kodlarni ifodalashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: maqol, lingvomadaniyat, tarjima, badiiy matn, madaniy kod, diniy konnotatsiya, pragmatik ma'no, Sidni Sheldon, milliy mentalitet, ekvivalentlik.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ В ТЕКСТЕ РОМАНА (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА СИДНИ ШЕЛДОНА «ЕСЛИ НАСТУПИТ ЗАВТРА»)

Аннотация

В данной статье на материале романа Сидни Шелдона «Если наступит завтра» рассматриваются лингвокультурологические особенности пословиц и их перевод на русский и узбекский языки. Исследование посвящено анализу функций пословиц в художественном тексте, их роли в раскрытии внутреннего мира персонажей и отражении национально-культурных ценностей.

Ключевые слова: пословица, лингвокультурология, перевод, художественный текст, культурный код, религиозная коннотация, прагматическое значение, Сидни Шелдон, национальный менталитет, эквивалентность.

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PROVERBS IN THE NOVEL TEXT (BASED ON SIDNEY SHELDON'S NOVEL IF TOMORROW COMES)

Annotation

This article examines the linguocultural features of proverbs and their translation into Russian and Uzbek based on Sidney Sheldon's novel "If Tomorrow Comes." The study focuses on the functional and semantic roles of proverbs in literary discourse, their contribution to character portrayal, and their significance in expressing national and cultural values.

Keywords: proverb, linguoculturology, translation, literary text, cultural code, religious connotation, pragmatic meaning, Sidney Sheldon, national mentality, equivalence.

Kirish. Shaxsning ma'naviy qadriyatlarini, o'y-xayollari, tasavvurlari o'zgalarga bo'lgan munosabati til birliklari orqali nutqqa chiqariladi. Til xalq madaniyatining ifodachisi, saqlovchisi sifatida fenomenlik xususiyatiga ega bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining eng qimmatli va nodir namunalaridan biri bo'lgan maqollar til eglarining uzoq yillik hayotiy tajribasini o'zida aks ettirishi bilan muhim ahamiyatga ega. Maqollar milliy tafakkurning ko'zgusi hisoblanib, ularda xalqning ma'naviy dunyosi, axloqiy qarashlari va hayotga nisbatan munosabati yorqin aks etadi. Shu sababli maqollar lingvomadaniy tadqiqotlar uchun eng qulay va boy material manbai sifatida qaraladi. Shu bilan birga maqollar folklorning muhim janri sifatida qayd etiladi. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: "Maqollar xalqning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan teran fikrlarning aniq va ixcham ifodasi sifatida chuqur mazmunga ega bo'lgan alohida janr". Maqollar alohida gap sifatida shakllangan, ixcham bo'lsa-da, xalq tajribasi asosida shakllangan chuqur falsafiy fikrni jamlagan folklor namunalaridir. Maqollarning lingvomadaniy tahlil uchun muhimligi shundaki, bu janr dunyoning barcha xalqlarida uchraydi. Bu maqollardagi milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zida jamlovchi muhim lingvomadaniy birlik ekanligini dalillaydi. Zero, "Maqollar tabiatiga ko'ra xalqaro

janr bo'lib, o'zida muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosa, hukmlarini mujassamlashtirgan, o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lgan ifodalardir. Har bir xalq hayoti, tarixida umumiyliklar bo'lgani kabi, xalqlar og'zaki ijodida ham bir-biriga yaqin, hamohang maqollar ko'p uchraydi". Shu jihatdan, maqollar turli madaniyatlar orasidagi farqlar va umumiyliklarni qiyoslashga juda qulay birliklar sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy matnda maqollardan foydalanish san'ati azal-azaldan mavjud. Hatto she'riy usulda yaratilgan asarlarda ham tez-tez maqollarga murojaat qilinadi. Bu muallif fikrining o'quvchiga aniq va oson yetib borishiga xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotda she'riy asarlarda maqol qo'llash san'ati "irsoli masal" deb nomlanadi. Butun boshli g'azallar maqollar asosida qurilganligi ajdodlarimizning bu folklor janriga e'tibor bilan munosabatda bo'lganligidan dalolat beradi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asarda xalq og'zaki ijodi namunalarini, xususan, maqollarni qo'llash san'ati "folklorizm" deb nomlanadi. Maqollarni badiiy matnda qo'llashning muhim tomoni shundaki, ular orqali muallif qahramonlarning milliy mentalitetini, ijtimoiy mavqei va ichki dunyosini chuqur ochib berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Lingvomadaniy jihatdan maqollarning tahlili asarga milliy kolorit bag'ishlash bilan

birga, madaniyatning ichki kodlarini va xalq tafakkurining o'ziga xosligini aniqlashga yordam beradi. Maqollarning qo'llanilishi nutqning obrazlilikini oshirib, o'quvchida milliy ruh va emotsional ta'sirni kuchaytiradi. Shu bilan birga, maqollarning tarjima jarayonidagi o'zgarishi yoki moslashuvi madaniyatlararo farqlarni va tarjimonning lingvomadaniy mahoratini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich ham hisoblanadi. Umuman olganda, badiiy asarda maqollarning lingvomadaniy tahlili til va madaniyat kesishmasidagi kognitiv jarayonlarni chuqur anglashga xizmat qiladi hamda asarning estetik va mazmuniy qiyofasini to'liqroq ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'kidlash lozimki, "Orziqib kutaman ertani" romanida maqollar u qadar ko'p qo'llanmagan. Romanda qo'llangan maqollarning biri Treysi onasi tomonidan aytiladi. Aslida, maqollar mazmunida mavjud bo'lgan pand-nasihat, tarbiyaviy xulosa bu o'rinda maqol qo'llangan jumlaning to'g'ri yo'nalish olganligidan dalolat beradi. Quyida maqolning asl matnda qo'llanilishi va uning tarjimasini qay tarzda berilganligini tahlil qilamiz:

"Tracy could hear her mother's voice: Baby, God will never throw anything at you that you can't handle. First take it one step at a time." (1.19)

"Трейси словно слышала голос матери: «Не взваливай на себя ношу, которую не потянешь. Продвигайся постепенно – шаг за шагом.»" (2.12)

"Трейси қулоғига онасининг овози чалингандек бўлди: «Қизалоғим, худо ҳамма вақт мушқулингни осон қилади. Бунинг учун ўз вақтида ўзингни қўлга ола бил.»" (2.15)

Maqol romanning boshida, ya'ni Treysi Charlzning ota-onasi bilan uchrashgandagi o'ng'aysiz holatida qo'llanadi. Treysi noqulay vaziyatda ham o'zini xotirjam tutishga harakat qiladi va onasining nasihatimiz gapini qulog'ining ostida jaranglagandek bo'ladi. Chunki roman qahramoni otasi vafotidan keyin onasiga suyanib qolgan, hayot yo'lidagi har bir murakkab qadamni uning maslahati bilan tashlar edi. Ingliz tilida bu maqol motivatsiya berish, harakat qilishga undash, qiyinchiliklar o'tib ketishiga ishonirish maqsadida qo'llanadi. Ushbu maqolning inglizcha asl variantida ("God will never throw anything at you that you can't handle") diniy-konnotatsiya kuchli ifodalangan bo'lib, nasroniylar dunyoqarashiga xos bo'lgan tasavvurlarni aks ettiradi. Maqolda qo'llangan teonimlar yordam beradigan hech kim qolmaganda ham yaratganning o'zi bandani qo'llashi, u hal eta olmaydiga muammoni jo'natmasligiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlagan.

Bunda yaratganning bandalariga mehribonligi ular ko'tarolmaydigan yukni jo'natmasligida namoyon bo'ladi. Shu aqidaga to'la ishonchi bo'lgan Treysi Charlzning ota-onasi oldida izza bo'lishi mumkinligi, ular uchun xohlanmagan kelinga aylanishi kabilarni o'tkinchi mushkulot sifatida qabul qiladi hamda noqulay suhbatga o'zini ruhan tayyorlaydi. Tafakkur qilish insonga berilgan eng oliy ne'mat sanaladi. Asar qahramoni Treysi qayd etilgan vaziyatda xayolan eng yaqin insoni bo'lgan onasiga murojaat qiladi. Onasi berishi mumkin bo'lgan nasihatni miyasida shakllantiradi hamda xayoliy suhbatda uni onasi tilidan "aytadi". Bunday tarzdagi ruhiy meditatsiya suhbatning keyingi noqulay tarzda kechishida ham Treysiga xotirjamlikni saqlab qolishga yordam beradi. Umuman, maqol go'yoki boshqa qahramon tilidan bayon qilingan bo'lsa-da, aslida Treysining xayolidan o'tgan fikr edi.

Tahlil va natijalar. Maqolning rus tiliga tarjimasida diniy quroshov yo'qolib, ko'proq pragmatik ahamiyatga ega bo'lgan, odatiy suhbat davomida beriladigan maslahat sifatida shakllantirilgan: "Не взваливай на себя ношу, которую не потянешь". Rus tili maqol va matallar to'plamida bunday birlik uchramaydi. Qayd etish lozimki, inglizcha maqolning rus tiliga

tarjimasini aynan maqol bilan berilmasligi uning ta'sirchanligini birmuncha tushirgan. Zero, "maqollarda so'zlarning qiymati ayniqsa yorqin aks etadi, chunki ulardagi har bir so'zni boshqasi bilan almashtirish yoki qo'shimcha birlik kiritish mumkin emas. Ular milliy tilning o'ziga xos tarkibida, o'zgarimas holda namoyon bo'ladi". Shu ma'noda, maqollarning tarjimasini maqol bilan berilishi maqsadga muvofiq. Bu badiiy asar qahramonlarining ruhiy holati, muloqot vaziyatidagi kayfiyatini bir tildan boshqasiga o'tkazishda samarali natijani ta'minlaydi. Rus tilidagi tarjimaning muvaffaqiyatsizligi ruscha matnda mazmuniy yo'qotishlarning mavjudligida ham namoyon bo'ladi. Asl matnda, ya'ni ingliz tilida yaratganning insonga uning sabri, qudratidan ortiqcha qiyinchilik yubormasligi bayon qilingan. Rus tilidagi matnda esa insonning o'zi quvvati yetmaydigan yuklamani olmasligi zarurligi qayd etilgan. Tabiiyki, bu ikki matndagi mazmun o'zaro birmuncha farqlanadi. Birinchi holatda, yaratganning insonga u yecha oladigan muammolarnigina yuborishi, shu sababli ortiqcha tashvishlanishga hojat yo'qligi ma'nosi oydinlashadi. Rus tilidagi matnda esa motivatsion mohiyat birmuncha yo'qolgan. Qahramon go'yoki noqulay vaziyatga o'zini o'zi tushirgan, shu sababli undan chiqib ketish ham uning o'zigagina bog'liqdek, taassurot uyg'ongan. Vaholanki, Treysining Charlz bilan uchrashishi, avvalo, taqdirning izmidagi hodisa edi. Charlzning ota-onasi bilan bo'ladigan "yoqimsiz suhbat"dan sabr va chidam bilan o'tib olish uchun aynan dalda bo'luvchi odam va uning suhbatini zarur edi. Shu jihatdan rus tilidagi tarjimada "God will never throw anything at you that you can't handle" maqoliga yaqin bo'lgan rus maqollaridan keltirish maqsadga muvofiq bo'lardi. Masalan, «Чего Бог не даст, того никто не возьмет», «Бог не выдаст, свинья не съест» kabi rus maqollari mazmunan ingliz tilidagi maqolga yaqin. Bu kabi maqollarning qo'llanilishi, bir tomondan, mazmuniy aniqlikni ta'minlash, ikkinchi tomondan diniy quroshovning saqlanishiga xizmat qilgan bo'lardi. Lingvomadaniy tahlilda mazkur maqolning tarjima variantlari madaniyatlararo muloqotning muhim ko'rsatkichi sifatida qaralishi mumkin, chunki u har bir tilning dunyoqarashidagi "taqdir", "sabr-toqat" konseptlarining o'ziga xos talqini ochib beradi. Bunday o'zgarishlar tarjima jarayonida lingvomadaniy bo'shliqlar paydo bo'lishiga olib keladi va qahramonning ichki monologi orqali ifodalangan ruhiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ta'sir zaiflashadi. Maqollar tarjimasida nafaqat leksik, balki pragmatik va emotsional konnotatsiyalarni saqlash lingvomadaniyat-shunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanishi shu kabi o'rinlarda yaqqol yuzaga chiqadi. Maqolning ingliz – rus yo'nalishidagi matnlari tahlili tarjima jarayonida madaniy kodlarning moslashuvchanligini va tarjimonning ikki madaniyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi zarurligini yana bir bor isbotlaydi.

Roman tarjimasini bevosita ingliz tilidan emas, balki rus tilidan amalga oshirilganligi aynan shu maqol tarjimasiga o'z ta'sirini o'tkazmagan. Buni o'zbekcha tarjimada yana diniy quroshovga murojaat qilinganligidan bilib olish mumkin: "Xudo hamma vaqt mushkulingni oson qiladi". O'zbekcha tarjimada ikki jihatni qayd etish lozim: birinchidan, tarjimon asl matn mazmunining to'liq tarzda yetkazilishiga erishgan. Bunda qahramonning ruhiy holati, nutq vaziyatidagi kayfiyati, kelajakdan ko'zlagan umidi o'zgarimagan tarzda ifodalangan. Shunday bo'lsa-da (bu ikkinchidan), maqol mazmuni o'zbek tilida ham maqol vositasida berilmagan. Tarjimonning birinchi vazifasi asl matndagi mazmuni to'la holda saqlab qolish ekanligi hisobga olinganda, bunday o'zgarishga ko'p diqqat qaratmasa ham bo'ladi. Maqolning o'zbek tilida berilishida lingvomadaniy o'ziga xoslik diniy quroshovagi farqlarda aniq ko'rinadi. Tarjimon asar voqealari ro'y berayotgan mamlakat

va qahramonlarning millatini hisobga olgan holda tarjimada umumiy ma'no ifodalovchi so'zdan (xudo) foydalanadi. Chunki o'zbek xalqining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qiladi. Islom dinida Alloh "butun mavjudotni yaratgan ilohiy kuch; xudoning nomi" sifatida e'tirof etiladi. Aslida tarjimadagi jumla "Qizalog'im, Alloh hamma vaqt mushkulingni oson qiladi" tarida shakllantirishi mumkin edi. Ammo bunday holatda roman voqealari ro'y berayotgan mamlakat aholisining diniy qarashlariga uyg'unlik yo'qotilgan bo'lardi. Shu sababli tarjimada foydalanilgan "xudo" leksemasi lingvomadaniy jihatdan to'g'ri bo'lgan, deyishimiz mumkin. "Xudo" leksemasi aniq bir dindagi emas, balki umumiylik asosida oliy ilohiy kuchni quyidagi izohdan ham bilib olish mumkin:

"XUDO, xudoy 1. Diniy tushunchaga, xususan, islom diniga ko'ra, butun mavjudotni, butun olamni yaratgan va uni boshqaruvchi oliy ilohiy kuch; har qanday dinning e'tiqod qilish asosi.

2. Ko'pxudolikda: olamning qandaydir bir qismining oliy hukmdori". Shu jihatdan, tarjimon tomonidan tanlangan "xudo" leksemasi mantiqan to'g'ri bo'lgan. Bu madaniyatlar, xususan, diniy qarashlardagi farqlarning yumshatilishiga xizmat qilgan. Diniy quroshovning saqlab qolinishi asar qahramonining ruhiy holatini aniq yetkazishda muhim o'rin tutgan. Qolaversa, asarning bosh qahramoniga xos bo'lgan kurashuvchanlik, qat'iyat, jasorat kabi xislatlarning ochilib borishiga o'quvchini tayyorlab borish nuqtayi nazaridan ham tarjimaning bunday shakllantirishi muhim edi. Ya'ni Treysi o'z-o'zidan bu qadar ayyor, dushmanlariga nisbatan yovuz va sovuqqon bo'lib qolmaganligini, u har doim yaratganing mavjudligi hamda mehribonligiga ishonishini dalillash uchun ham diniy quroshov zarurdir. Chunki asarning butun syujeti davomida Treysi o'z-o'zi, ichki tuyg'ulari bilan kurashadi. Dushmanlaridan qasos olib borgan sari battar yovuzlashib ketish o'rniga, asl insoniylikni saqlab qolishga intiladi. O'quvchi ham, bosh qahramon ham oddiy inson jamiyatdagi qudratli shaxslar bilan qanday kurashishi, ularni yenggan holda, o'zi omon qolishi mumkinligi haqidagi savolga javob qidiradi. Umuman, tahlilga tortilgan maqol qahramonning ichki monologi orqali qo'llanishi romanda psixologik chuqurlik yaratadi hamda Treysining onasi bilan bo'lgan hissiy aloqasini ramziy tarzda mustahkamlaydi.

Bunday lingvomadaniy birliklar tarjima jarayonida nafaqat ma'noni, balki madaniy va axloqiy universalliklarni saqlab qolish muhimligini ko'rsatadi, chunki ular turli xalqlarning hayotiy qiyinchiliklarga munosabatini ifodalovchi umumiy kod vazifasini o'taydi.

"Maqollar yordamida xalqning milliy xususiyatlari, shuningdek, dunyo xalqlarining umumiy va farqli tomonlarini aniqlash mumkin. Turli tillardagi barqaror birikmalar va frazeologik birliklar orqali ularning til egalarining tafakkuri, dunyoqarashi hamda atrof-muhitga bo'lgan munosabatini

o'rganish ayniqsa diqqatga sazovor va ilmiy ahamiyatga molikdir". Maqollarning shakllanishi, xalq lisoniy olamida paydo bo'lishini o'rganish lingvomadaniy tahlil asosidagi tadqiqotlarning asosiy obyekti hisoblanadi, chunki xalq millat ma'naviyatiga oid birliklar mahalliy madaniy ta'sir darajasini kuchaytiradi. Romanda maqollarning nisbatan kam qo'llanilishi, bir tomondan, asarning syujetiga xos bo'lgan dinamik va dramatik voqealar rivojiga, ikkinchi tomondan, muallifning psixologik tasvir uslubiga bog'liq. Biroq mavjud maqollarning har biri qahramonning ichki kechinmalarini chuqurlashtirish va voqealar rivojini ruhiy jihatdan asoslashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, "the fickle finger of fate" iborasi taqdirning ayovsizligi va kutilmagan burilishlarini kinoyalari tarzda ifodalab, roman qahramonlarining hayotiy sinovlarga munosabatini ochib beradi. Bu birlik orqali muallif taqdirning odam taqdiridagi o'rni masalasini ko'taradi va o'quvchida falsafiy mushohada uyg'otadi. Tarjima jarayonida maqollarning lingvomadaniy moslashuvi tarjimonning ikki madaniyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini qanchalik muvaffaqiyatli bajarganligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichdir. O'zbek tilidagi tarjimada diniy quroshovning saqlanishi milliy auditoriyaga ma'qulroq bo'lgan islomiy dunyoqarash bilan uyg'unlashganligini namoyon etadi. Umuman olganda, maqollarning badiiy matnda qo'llanilishi nafaqat milliy koloritni kuchaytiradi, balki turli madaniyatlarining umumiy insoniy qadriyatlarini va farqli mentalitetini qiyosiy tahlil qilish imkonini yaratadi.

Xulosa va takliflar. Romanda maqollarning kam uchrayishi asarning asosiy syujeti kuchli harakat va psixologik keskinlikka asoslanganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, har bir qo'llanilgan maqol qahramonning ichki kurashi va ruhiy tayanchini ochishda muhim semantik yuklama oladi. Tarjima jarayonida diniy va pragmatik konnotatsiyalarning o'zgarishi madaniyatlararo moslashuvning murakkab vositaini yaqqol namoyon etadi. O'zbekcha tarjimada "Xudo" leksemasining tanlanishi milliy auditoriyaning dunyoqarashi bilan uyg'unlashishga qaratilgan tarjimon yondashuvini ko'rsatadi. Bunday tanlov roman qahramonining ichki monologi va ruhiy barqarorligini saqlab qolishga xizmat qilgan. Maqollarning lingvomadaniy tahlili tarjima amaliyotida nafaqat leksik, balki emotsional va axloqiy qatlamlarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Roman matnidagi maqollarning o'rganilishi tarjimonning madaniy kodlarni qay darajada saqlab qolganligini baholash imkonini beradi. Umuman, bunday tahlil lingvomadaniyatshunoslikda tarjima usullarining samaradorligini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon til va madaniyat kesishmasidagi nozik muvozanatni saqlashning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu jihatdan, Sidni Sheldon asaridagi maqollar tahlili nafaqat adabiy matni chuqurroq anglashga, balki madaniyatlararo tarjima nazariyasini boyitishga ham hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Sheldon, S. (1985) *If tomorrow comes*. United States: Warner Books.
2. Шелдон, С. (1985) *Если наступит завтра*. Москва: "АСТ".
3. Sheldon, S. (2018) *Orziqib kutaman ertani*. Toshkent: "Yangi Asr Avlodi".
4. Uralova O. Maqollar lingvokulturologik manba sifatida // *Tamaddun nuri*. 2025. 4-son. – B.208-210.
5. Uzoqova Y. O'zbek va ingliz xalq maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari // "O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024. – B.211-213.
6. Fergusson R. *The Penguin Dictionary of Proverbs*. – New York: Penguin Books, 2000. – P.114-116. – 366 p.
7. Даль В.И. *Пословицы русского народа*. – Москва: Русский язык, 2004.
8. Jurayev N. *Ingliz va o'zbek tillarida "til" mavzuiy guruhidagi maqollarning semantik, pragmatik va lingvoma'naviy tipologiyasi*: Filol. fanl. b. fals. dokt. (PhD) diss. – Qarshi, 2026. – B.112. – 145 b.
9. Дубровская О.Г. Русские и английские пословицы как культурологические единицы // *Вестник РУДН*. 2013. № 3. – С.60-69.